

**“HARAKATLAR STRATEGIYASI-O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING  
YANGI BOSQICH ASOSI HAMDA JAMIYATDAGI O‘ZGARISHLAR”**

**Sh. Mirahmedova**

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
mustaqil tadqiqotchi*

Globalashuv, ijtimoiy inqirozlar ro‘y berib turgan sharoitda butun insoniyat burilish davrini boshdan kechirmoqda. Mustaqil O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli tub islohotlar jarayoni, ayniqsa Prezidentimiz Sh. Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi<sup>3</sup>, jamiyatimiz rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi va undan kelib chiqadigan o‘ta muhim masalalarni oldimizga qo‘ydi. Bular qatoriga, avvalo, jamiyatimiz mohiyati, uning hayoti va rivojlanish qonuniyatlari, undagi hodisa va jarayonlarni o‘rganuvchi masalalar kiradi. Shu bilan birga “yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash”<sup>4</sup> masalalariga ham alohida e‘tibor berilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham “yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish”<sup>5</sup> muhim vazifalardan hisoblanadi. Albatta, yoshlarga e‘tibor davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda unib-o‘sib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizni izchil rivojlanishida «o‘zbek modeli”ning ahamiyati beqiyosdir. 1992 yilda Birinchi Prezidentimiz mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga, davlatchilik tarixiga, milliy-diniy qadriyatlar va zamonaviy rivojlangan davlatlar

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Lex.uz // 08.02.2017.

<sup>4</sup> <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-boyicha-muhim-vazifalar-belgilab-berildi.html>

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60 сон. <https://lex.uz/docs/5841063>

tajribalariga rivojlanishning «o‘zbek modeli» tamoyillar tizimini taklif etdi. Mamlakatimizda rivojlanish imkoniyatlaridan rivojlanishning «o‘zbek modeli»ni tanlandi va shu asosida demokratik islohotlar amalga oshirildi. Rivojlanishning «o‘zbek modeli» asosini tashkil etuvchi tamoyillar va normalarning to‘g‘riligini vaqt ko‘rsatmoqda. Hayotga tadbiiq etilgan ushbu modelni mohiyati siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat edi.

Ushbu rivojlanish modelining mohiyati, uning tarixiy tashkil topgan shart-sharoitlar hamda metodologik asoslari, tamoyillari xususida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, S.Xolboev modelning yaratilish tarixi, ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni<sup>6</sup>ga e‘tibor bergan bo‘lsa, N.To‘xliiev o‘zbek modelining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillarini<sup>7</sup>, professor M.N. Abdullaeva «O‘zbek modeli» mamlakatimizning izchil rivojlanishining nazariy-metodologik asosi<sup>8</sup> sifatida yoritib bergan. Shu bilan birga G.G‘affarova rivojlanishning «O‘zbek modeli»da axborotlashtirish muammolari, fan taraqqiyotida axborotlashuvning ahamiyati<sup>9</sup>ni tadqiq etgan.

Albatta, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan mamlakatlarga olg‘a bormoqda, rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz”<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, bugungi kunda respublikamizda ham strukturaviy o‘zgarishlar bormoqda. Ma‘lumki, struktura tizimning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va o‘zaro ta’sirlarni o‘zida aks ettiradi. Shu sababli strukturaning o‘zgarishi jamiyatning ham o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu paragrafda rivojlanishning Harakatlar strategiyasi mazmuni-mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

O‘zbekistonning izchil innovatsion rivojlanishining nazariy-metodologik asosi «Harakatlar strategiyasi»da o‘z aksini topgan. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar insonlar faoliyat qamrovini kengaytirdi, ya’ni imkoniyatlar maydoni, u bilan bog‘liq bo‘lgan insonlar faoliyat yo‘nalishlari ko‘paydi. Shu sababli «tafakkur islohatini kechiktirib bo‘lmaydigan to‘g‘risidagi g‘oya o‘z navbatida bizning ta’lim tizimimizda chuqur, jiddiy islohotlarni o‘tkazish kechiktirib bo‘lmaydigan va zaruriy murakkab tafakkur insoniyat uchun hayotiy zarurlikdir”<sup>11</sup>. Albatta, inson tafakkurini o‘zgartirish,

<sup>6</sup> Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели (методолоя, инновация, тарихий таҳлил). – Тошкент: «O‘zbekiston», 2014. – 240 б.

<sup>7</sup> Тўхлиев Н. Ўзбек модели тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2014. – 264 б.

<sup>8</sup> Абдуллаева М. Н., Сафарова Н.О., Фаффарова Г.Ф., Жалалова Г.О. «Ўзбек модели» мамлакатимизни изчил ривожланишининг назарий-методологик асоси. Монография. – Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2017. –Б.7-43.

<sup>9</sup> Абдуллаева М. Н., Сафарова Н.О., Фаффарова Г.Ф., Жалалова Г.О. «Ўзбек модели» мамлакатимизни изчил ривожланишининг назарий-методологик асоси. Монография. – Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2017. –Б.60-117.

<sup>10</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б.19-20.

<sup>11</sup> Морен Э. Метод. Природа. Природы. – Москва, 2005. –С.28.

uni yangi g'oyalar bilan ta'minlash hayot davomida har bir inson oldida turgan muammo hisoblanadi.

Endi bevosita Harakatlar strategiyasini mazmun-mohiyati hamda uning yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini tahlilini boshlaymiz. Avvalo, Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyatini yoritishdan oldin strategiya so'zining mazmun-mohiyatiga, ya'ni strategiya tushunchasi haqida qisqacha to'htalsak.

Strategiya tushunchasi grekcha στρατηγία so'zidan olingan bo'lib, iskusstvo polkovodsa ma'nosini bildiradi<sup>12</sup>. Ya'ni, urush haqidagi fan, qisman ko'mondonlik fani, harbiy faoliyatda asoslanmagan reja, ma'lum vaqt oralig'ini o'z ichiga olgan, umuman inson faoliyatidagi murakkab maqsadga erishish imkoniyati. Strategiya vazifasi asosiy maqsadga erishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Shu sababli ham “strategiya – bu ta'limot izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi”<sup>13</sup>.

Strategiya urushda g'olib bo'lish uchun kerak. Ammo, bu tushuncha XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tijorat sohasida metodologiya va amaliy jihatdan, so'ngra davlat boshqaruvi sohasida ham rivojlana boshladi. XXI asrga kelib esa strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Darhaqiqat, strategiya deb dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab olmoqda. Shu sababli, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'z ichiga davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishni jadallashtirish va faol tashqi siyosatni amalga oshirishga oid beshta asosiy ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan. Albatta, “strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtda hayotga izchil joriy etilmoqda”<sup>14</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevral kungi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

<sup>12</sup> Қаранг: Lite| ru.m.wikipedia.org

<sup>13</sup> Алимардонов Т. Ҳаракатлар стратегияси – Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи // Халқ сўзи, 2019 йил 29 январь, <http://xs.uz>

<sup>14</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон» ИМИУ, 2018. -Б.245.

Davlat rahbarining g‘oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg‘or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o‘rin egallashi asosiy maqsad etib belgilangan mazkur Strategiya mamlakatning yaqin istiqboldagi taraqqiyot yo‘lining bosh ustuvor hujjati sifatida xalqaro jamoatchilik, nufuzli ekspert-mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, siyosatshunoslar tomonidan yuqori baholandi.

Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonni rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishi** belgilab berilgan bo‘lib, ularning har birida mamlakatda yangi bosqichdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini ta‘minlashga oid aniq chora-tadbirlar o‘z aksini topgan

1. **“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish”** deb nomlangan birinchi yo‘nalishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

2. **“Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish”** deb nomlangan ikkinchi yo‘nalishda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarida samaradorlikni oshirish, sudlarni chinakam “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirish yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, sud-huquq tizimida yangi yo‘nalishdagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan.

3. **“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish”** deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solish, O‘zbekistonga xorij investitsiyalarini keng jalb qilish, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yuksaltirish, umuman, mamlakat iqtisodini jadal rivojlantirish bo‘yicha tegishli vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhim o‘rin tutadi.

4. **“Ijtimoiy sohani rivojlantirish”** deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish aholi, ayniqsa yoshlarning bandligini ta‘minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta‘lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan.

5. **“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”** deb nomlangan

beshinchi yo‘nalish doirasida esa, davlatning mustaqilligini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga oid chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek, dunyoning barcha davlatlari, ayniqsa, birinchi navbatda, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro teng manfaatlarga asoslangan do‘stona aloqalar va mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi tinchlikparvar siyosatga tayangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

Darhaqiqat, “Harakatlar strategiyasi” besh bosqichda, O‘zbekistonda har bir yilga beriladigan nomlardan kelib chiqib qabul qilinadigan Davlat dasturlari asosida amalga oshirib borilishi nazarda tutilgan edi.

Harakatlar strategiyasi rejaları asosida mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va xalqaro miqyosida respublikamizni mavqei o‘zgarib borayotganini kuzatmoqdamiz. Harakatlar strategiyasi rivojlanishni “o‘zbek modeli”ga asoslanib, asosiy g‘oyalarni amaliyotga tadbiiq qilishi bilan birga yangi vazifalar, yangi imkoniyatlarni joriy etmoqda. Harakatlar strategiyasining algoritmi inson manfaatlarini himoyalash jarayonida xalq bilan, boshqa mamlakatlar bilan muloqot olib borishga yo‘naltirilgan. Harakatlar strategiyasining rejalarining yo‘nalishi ko‘p vektorli va har biri ko‘p funkcionallidir.

Xo‘sh amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi doirasida qanday strukturaviy o‘zgarishlar paydo bo‘ldi?

Ma‘lumki, Respublikamizni rivojlanish asosini demokratik va huquqiy davlat, fuqaroviy jamiyat qurish g‘oyalari tashkil etadi. Bugungi kunda rivojlanish yo‘li “Harakatlar strategiyasi”da o‘z aksini topgan. Shu sababli, mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va tezkorlik bilan dunyo miqyosidagi o‘zgarishlarni hisobga olib kelajakda respublikamizning rivojlanishi nazarda tutilib harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Unda davlat organlari va fuqarolar tizimida ularning o‘zaro munosabatini tubdan o‘zgartirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shu bilan birga “taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o‘z ishimizda doimo suyanamiz”<sup>15</sup>.

Bugungi kunda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish ham mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishini o‘z ichiga olgan. Ya‘ni, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. –Б.5.

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида / Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: «Адолат», 2018. –Б.4-5. (-112 б.)

Bugungi kunda rivojlanish yo‘li «Harakatlar strategiyasi»da o‘z aksini topgan. Shu sababli, mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va tezkorlik bilan dunyo miqyosidagi o‘zgarishlarni hisobga olib kelajakda respublikamizning rivojlanishi nazarda tutilib harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Unda davlat organlari va fuqarolar tizimida ularning o‘zaro munosabatini tubdan o‘zgartirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shu bilan birga «taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o‘z ishimizda doimo suyanamiz»<sup>17</sup>. Demak, rivojlanishning Harakatlar strategiyasi modeli bevosita taraqqiyotning «O‘zbek modeli»doirasida olib borilgan demokratik islohotlarning davomchisi sifatida qarashimiz mumkin.

Xususan, Harakatlar strategiyasi rivojlanishni «O‘zbek modeli»ga asoslanib, asosiy g‘oyalarni amaliyotga tadbiiq qilishi bilan birga yangi vazifalar, yangi imkoniyatlarni joriy etmoqda. Harakatlar strategiyasining algoritmi inson manfaatlarini himoyalash jarayonida xalq bilan, boshqa mamlakatlar bilan muloqot olib borishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga «Harakatlar strategiyasi rejalarining yo‘nalishi ko‘p vektorli va har biri ko‘p funktsionalli»<sup>18</sup>dir. Buni Harakatlar strategiyasi rejaları asosida mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va xalqaro miqyosida respublikamizni mavqei o‘zgarib borayotganida kuzatishimiz mumkin.

Albatta, inson, davlat, jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, bu elementlar o‘rtasidagi mavjud bog‘lanishlar va ta’sirlarning yanada mustahkamlanishini ta’minlaydi. Albatta, «dialog, so‘zlashuv, rahbarlarning xalq bilan so‘zlashuvining turli shakllari Konsepsiya amalga oshirilishining eng muhim jihatidir»<sup>19</sup>. Shu sababdan ham davlat va xalq o‘rtasida muloqot (dialog) rivojlanishning yangi istiqbollarni ochib berish bilan birga rivojlanish muammolarini qonunlar va farmonlarga tayangan holda hal qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida olib borilayotgan innovatsion rivojlanish bir qator sifat o‘zgarishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, «jamiyatning barcha jabhalarida strukturaviy va funksional yangilanishlar ustuvor jarayonga aylandi»<sup>20</sup>. Ma’lumki, «struktura tizimning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va o‘zaro ta’sirlarni o‘zida aks ettiradi. Shu sababli strukturaning o‘zgarishi jamiyatning ham o‘zgarishiga olib keladi»<sup>21</sup>. Darhaqiqat, bunday o‘zgarishlar

<sup>17</sup> Мирзиев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. –Б.5.

<sup>18</sup> Абдуллаева М. Н. Конструктивный диалог – путь к решению проблем // Ривожланишнинг «ўзбек модели» тизимида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясининг имконият ва истикболлари: республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2017. –Б.87.

<sup>19</sup> Абдуллаева М. Н. Конструктивный диалог – путь к решению проблем // Ривожланишнинг «ўзбек модели» тизимида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясининг имконият ва истикболлари: республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2017. –Б.87.

<sup>20</sup> Абдуллаева М. Н., Гаффарова Г.Ф. Инновацияларни Ҳаракатлар стратегияси тизимидаги аҳамияти // Ёшларни гоъвий-мафкуравий тарбиялашнинг устувор йўналишлари: Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2018. –Б.5.

<sup>21</sup> Гаффарова Г.Ф. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий-методологик асослари: Автореферат дисс.. фалс.фан. доктори. – Тошкент, 2019. –Б.25.

pallasiga kirgan jamiyatda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, noan'anaviy fikrlash va faoliyat ko'rsatish, eng yangi ishlab chiqarish usullari va vositalaridan foydalanish ijtimoiy ehtiyoj darajasida ko'rilmogda. Ya'ni, «biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak»<sup>22</sup>.

Taraqqiyotning «O'zbek modeli» singari bugungi kunda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish ham o'z ichiga davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishni jadallashtirish va faol tashqi siyosatni amalga oshirish<sup>23</sup>ga oid beshta asosiy ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan. Darhaqiqat, ushbu yo'nalishlardagi o'zgarishlar bir biri bilan o'zaro aloqada bo'lishni hamda tizimlilik asosida islohotlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi. Ushbu harakatlar respublikani yanada rivojlantirishning har bir strategik yo'nalishidagi belgilangan chora-tadbirlarni kompleks (tizimli) olib borishni zaruriyatga aylantiradi. Shu sababli rivojlanishning Harakatlar strategiyasining «tizimli-strukturaviy sxemasi uchta komponentni o'z ichiga oladi: strategik maqsad, strategik yo'nalishlar va strategik harakatlar»<sup>24</sup>.

Aytish kerakki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Bu esa davlat va xalq o'rtasidagi aloqa ular orasidagi munosabatni o'zgartirishni, ya'ni xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi zarurligini bildiradi. Shu bilan birga davlat va jamiyat o'rtasida doim o'zaro aloqa bo'lishini taqozo etadi.

Ma'lumki, «2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi dasturi»<sup>25</sup>da ham jamiyatimizdagi strukturaviy o'zgarishlar yanada davom etishi nazarda tutilgan. Chunki mazkur dastur o'z ichiga 2017 yilga mo'ljallangan o'n bitta yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, tizimning elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar yanada ortadi.

<sup>22</sup> Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б.20.

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида / Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: «Адолат», 2018. –Б.4-5. (-112 б.)

<sup>24</sup> Ниязимбетов М.К. Ривожланишнинг тизимли стратегияси келажакнинг конструктив модели сифатида // Ўзбекистонда таълим ва фан соҳаси истиқболларининг фалсафий масалалари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. –Б.20.

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Lex.uz // 08.02.2017.

Ayniqsa, 2017 yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi jamiyatimiz strukturasi o’zgarishlarni mustahkamlashda muhim omildir. Chunki jamiyatimizni murakkab tizim deb olsak, uning elementlari bo’lgan inson, davlat, jamiyat o’rtasidagi o’zaro muloqot, bu elementlar o’rtasidagi mavjud bog’lanish va ta’sirlarning yanada mustahkamlanishini ta’minlaydi. Darhaqiqat, o’zaro muloqot o’zaro bog’lanishlarni yanada mustahkamlab, jamiyatimizdagi fuqarolar, jamiyat va davlatning o’zaro ta’sir va faolligini oshiradi.

Shu bilan birga jamiyat kelgusi hayotini belgilab olishi, ijtimoiy taraqqiyot darajasiga mos kelmaydigan tizimlarni, institutlarni bartaraf etishi, jamiyatning yangi holatini aniqlashi va rivojlanish yo’llarini ishlab chiqishni talab etiladi. Ushbu jarayonlarining mezonlari bo’lib: ijtimoiy institutlar samaradorligi, ijtimoiy guruhlar strukturasi va inson omilining sifati xizmat qiladi. “Ilmiy muassasalarning moddiy texnik bazasini ilg’or xorijiy markazlar darajasida va talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash”<sup>26</sup> vazifasining belgilanganligi, o’ylaymizki, respublikamizdagi ijtimoiy institutlar samaradorligi, ijtimoiy guruhlar strukturasi va inson potentsialining sifatini ortishida muhim omil bo’ladi.

Ushbu yilda davlat hokimiyati tizimida ham strukturaviy o’zgarishlar joriy etildi. Jumladan, xalq saylagan vakillik organlari – parlament, xalq deputatlari kengashlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va ahamiyati tubdan o’zgardi. Buni birgina Toshkent shahridagi tumanlar darajasida xalq deputatlari kengashlari ta’sis etilganida ko’rishimiz mumkin. Bu esa Toshkent shahri aholisi uchun o’z vakillari orqali (deputatlar orqali) tumanlarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini berdi.

Yana shuni ham aytish kerakki, sud tizimidagi strukturaviy o’zgarishlar ham o’zining ijobiy natijasini bermoqda. Jumladan, yagona sud amaliyoti (Oliy sud va Oliy xo’jalik sudlarining birlashtirilishi), sudya lavozimiga muddatsiz tayinlash va ma’muriy sudlar faoliyatini joriy etilishi, jamoatchilik fikrini inobatga olish amaliyoti kabilar. Ayniqsa, sud ishlarini sayyor tartibda ko’rish tizimi yo’lga qo’yilgani ham xalq bilan sud idora xodimlari orasida qaytuvchi aloqani yuzaga keltirdi. Bu esa bir tomondan odamlarni o’z muammolarini joyida hal qilishga, ikkinchidan sud idoralari xalq hayotidan, uning dardu tashvishlaridan yaqindan bilish imkoniyatini berdi.

Darhaqiqat, harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizning barcha sohalarida strukturaviy o’zgarishlar bo’lyapti. Shunday strukturaviy o’zgarishlardan biri ijtimoiy sohadagi Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilganidir. Ushbu yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish, mamlakatda o’zaro raqobat qiluvchi davlat va nodavlat MTMLari tarmog’ini

<sup>26</sup>Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б.5.

yaratish, amaliyotga maktabgacha ta'lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat<sup>27</sup>.

Albatta bunday yangi tizimning joriy etilishi xalqning, ayniqsa qishloqda yashayotgan onalar, ayollar uchun o'z farzandini bog'chaga berish imkoniyatini yaratdi. Nahotki, qishloqlarda bog'chalar mavjud bo'lmagan degan savol tug'ilishi tabiiy. Yo'q bog'chalar bor edi, ammo hamma joyda emas. Borlarida ham sharoitlar talab darajasida emas edi. Yangi tizimning joriy etilishi, ushbu tizim doirasidagi olib borilgan islohotlar natijasida yurtimizning barcha hududlarida yangi bog'chalar qurildi hamda ular zamonaviy talablar asosida jihozlanib, malakali tarbiyachi va mutaxassislar, yangi metodika bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Hattoki, xususiy bog'chalar va uy bog'chalari tashkil etilishi, faoliyat olib borishlariga ruxsat berildi. Maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etilishi natijasi bola bog'chada sog'lom turmush asosida maktabga tayyor bo'lib voyaga yetishi bilan bolaning ongi, dunyoqarashi yuqori bo'lishiga sharoitlar yaratildi. Darhaqiqat, davlat va nodavlat MTMLarni tashkil etish, shuningdek maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini tatbiq qilish yo'li bilan bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olinmoqda.

2018 yil yurtimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlandi. Ushbu yil dasturida ham Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha islohotlar davom ettirildi. Nimaga endi faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalarga e'tibor qaratildi? Bunga sabab tadbirkor faol bo'lsa yangi ish o'rinlari yaratadi, nafaqat o'zini va oilasini boqadi, balki butun jamiyatga foydasi tegadi. Shu sababli ushbu yilda "Har bir oila - tadbirkor", "Yoshlar - kelajagimiz" kabi dasturlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Jumladan, dastur doirasida "2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi"<sup>28</sup>.

Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish sohalarida ham strukturaviy ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Har bir oila - tadbirkor", "Obod mahalla", "Obod qishloq" dasturlari amalga oshirildi. Shuningdek, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, xalqaro munosabatlar va faol tashqi siyosatda, Qurolli kuchlar tizimida ham tizimli ishlar olib borildi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday tizimli ishlarni amalga oshirish uchun Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Ayniqsa, ushbu yilda "chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirildi"<sup>29</sup>. Albatta, bunday investitsiyalarning olib kirilishi va turli sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgani ijobiy natijalarini bermoqda. Bunday faol investitsiya siyosatini yuritgan

<sup>27</sup>

<sup>28</sup> Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2019. -Б.6.

<sup>29</sup> Ўша манба. -Б.8.

davlatlar o'z iqtisodiyotini barqaror o'sishiga erishadi. Shuningdek, investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik rivojlanadi.

2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb nomlangan yil dasturida ham strategiyaning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tizimli islohotlar davom ettirildi. Darhaqiqat, ushbu yilda investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga erishildi. Iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar natijasida esa ijtimoiy sohadagi to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratdi.

Ushbu yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar, ayniqsa ta'lim tizimida kengroq miqyosda olib borildi. Xususan, mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta'limni rivojlantirish uchun ushbu yilda 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufusli xorijiy universitetlarning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi<sup>30</sup>.

Ijtimoiy sohadagi tizimli islohotlar natijasida ishlayotgan pensionerlarga pensiyani to'liq to'lash tartibi joriy etildi. Ijtimoiy yordamga muhtoj va ehtiyojmand aholi uchun nafaqa miqdori 2 barobar ko'paytirildi.

2019 yilda "Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar" tamoyili asosida o'tkazilgan saylov natijasida, respublikamizda yangi siyosiy muhit vujudga keldi.

2020 yil yurtimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlandi yil dasturida ham Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tizimli islohotlar davom ettirilmoqda. Ushbu yilda belgilangan Davlat dasturiga muvofiq yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha barcha sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi.

Xususan, bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 60 foizga yetkazish maqsadida islohotlar olib borildi. Natijada, mamlakatimizda ilk bor 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy etildi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu yilda pandemiya butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Shuningdek, Buxoro va Sardobada yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar ham respublikamiz iqtisodiyoti hamda mamlakat rivojiga sezilarli ta'sir etdi. Ammo bunday salbiy ta'sirlarni oldini olish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borildi. Xususan, pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab butun boshqaruv tizimi va barcha tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazildi. Natijada qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo'lgan qariyb 30 ming o'rinli davolash maskanlari tashkil etildi. Ular zarur dori-darmon, himoya va eng zamonaviy diagnostika vositalari bilan ta'minlandi. Pandemiya qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, chet ellik 150nafar yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalb

<sup>30</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2020. -Б.8.

etildi. Shu bilan birga Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so‘mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg‘arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq tadbirlarga budjetdan 16 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

2020 yilda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish bo‘ldi. Avvalo, aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borildi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – “temir daftar” tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta‘minlandi. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarining bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi.

Albatta, bunday tizimli ishlarni boshqa sohalarda ham kuzatish mumkin. Masalan, qishloq aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda yangi yo‘nalishga, ya‘ni dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari 300 milliard so‘m imtiyozli kredit va subsidiya ajratilishi, viloyatlarda “IT-parklar”lar tashkil etilishi, markazlashgan ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash va aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanish, ehtiyojmand oilalarning qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilish, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilishi, sud-huquq sohasi, jinoiy jazolarni liberallashtirish, sudlar mustaqilligi ta‘minlash, ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib borish kabilarni ta‘kidlash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Lex.uz // 08.02.2017.

<https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-boyicha-muhim-vazifalar-belgilab-berildi.html>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60 son. <https://lex.uz/docs/5841063>

3. Xolboev S. Milliy mustaqillik va taraqqiyotning o‘zbek modeli (metodoloiya, innovatsiya, tarixiy tahlil). – Toshkent: «O‘zbekiston», 2014. – 240 b.

4. To‘xliiev N. O‘zbek modeli taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2014. – 264 b.

5. Abdullaeva M. N., Safarova N.O., G'affarova G.G., Jalalova G.O. «O'zbek modeli» mamlakatimizni izchil rivojlanishining nazariy-metodologik asosi. Monografiya. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2017. –B.7-43.
6. Abdullaeva M. N., Safarova N.O., G'affarova G.G., Jalalova G.O. «O'zbek modeli» mamlakatimizni izchil rivojlanishining nazariy-metodologik asosi. Monografiya. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2017. –B.60-117.
7. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018. –B.19-20.
8. Moren E. Metod. Priroda. Природа. – Moskva, 2005. –S.28.
1. Qarang: Lite | ru.m.wikipedia.org
9. Alimardonov T. Harakatlar strategiyasi – O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi // Xalq so'zi, 2019 yil 29 yanvar, <http://xs.uz>
10. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: «O'zbekiston» IMIU, 2018. -B.245.
11. Mirziyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. –B.5.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr/O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: «Adolat», 2018. –B.4-5. (-112 b.)
13. Mirziyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. –B.5.
14. Abdullaeva M. N. Konstruktivnyy dialog – put k resheniyu problem // Rivojlanishning «o'zbek modeli» tizimida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining imkoniyat va istiqbollari: respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2017. –B.87.
15. Abdullaeva M. N. Konstruktivnyy dialog – put k resheniyu problem // Rivojlanishning «o'zbek modeli» tizimida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining imkoniyat va istiqbollari: respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2017. –B.87.
16. Abdullaeva M. N., G'affarova G.G. Innovatsiyalarni Harakatlar strategiyasi tizimidagi ahamiyati // Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari: Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2018. -B.5.
17. G'affarova G.G. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: Avtoreferat diss.. fals.fan. doktori. – Toshkent, 2019. -B.25.
18. Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018. –B.20.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida / Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: «Adolat», 2018. –B.4-5. (-112 b.)

20 Niyazimbetov M.K. Rivojlanishning tizimli strategiyasi kelajakning konstruktiv modeli sifatida // O‘zbekistonda ta‘lim va fan sohasi istiqbollarning falsafiy masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2017. –B.20.

21.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Lex.uz // 08.02.2017.

22.Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. –B.5.

<sup>1</sup>

23.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2019. -B.6.

<sup>1</sup> O‘sha manba. -B.8.

24. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. -B.8.